
Qo'shtepa tumaniga yangi rahbar tayinlandi

Bugun Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani kengashining navbatdan tashqari 51-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda tumandagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, mehnat faxriylari, tuman faollari ishtirok etishdi.

Sessiyada shuningdek, viloyat hokimi Shuhrat G'aniyev qatnashdi. Kun tartibida asosiy masala bo'yicha 2009 yildan beri tumanga rahbarlik qilib kelayotgan Jumanov Baxromjon Azimovich o'z arizasiga ko'ra lavozmidan ozod etilib, uning o'rniga ayni paytgacha viloyat hokimining iqtisodiyot tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari kotibiyat mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan Novikov Ilyos Valeriyevich tayinlanganligi deputatlar tomonidan tasdiqlandi.

B. Jumanovning uzoq yillik faoliyati to'g'risida viloyat hokimi, deputatlar, hamda tuman faollari ijobiy fikrlar bildirib o'tishdi. Shu bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham tilga olinib, bu boradagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha yangi tayinlangan rahbar oldidagi muhim vazifalarga alohida to'xtalib o'tildi.

Eslatib o'tamiz, bundan uch kun avval tuman deputatlar kengashining [50- sessiyasi](#) viloyat hokimligida o'tkazilgan edi.

2018-06-23 15:37:42